



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN (ERTAK, MAQOL, QO'SHIQ, AFSONA, DOSTON VA BOSHQALAR) FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI, XALQARO VA MILLIY TAJRIBASI



Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
magistranti

Ilmiy rahbar: Kadirova Shahnoza Xudoyberdiyevna
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda (5–7 yosh) xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasini tahlil qilindi. Maqola folklorning bola psixologik rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi, emotsional-intellektual dunyosini boyitish va milliy o'zlik hissini uyg'otishdagi pedagogik ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, folklor, ertak, maqol, qo'shiq, milliy qadriyatlar, maktabgacha ta'lim, axloqiy tarbiya, pedagogik vosita.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations, international, and national experience of using folklore tools (tales, proverbs, songs, legends, epics, etc.) in older preschool children (5–7 years). The article reveals the pedagogical significance of folklore in the psychological development, moral upbringing, enrichment of the emotional and intellectual world of a child, and awakening a sense of national identity.

Key words: oral folk art, folklore, fairy tale, proverb, song, national values, preschool education, moral education, pedagogical tool.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы, международный и национальный опыт использования средств устного народного творчества (сказок, пословиц, песен, легенд, дастанов и др.) у детей старшего дошкольного возраста (5-7 лет). В статье раскрывается педагогическое значение фольклора в психологическом развитии, нравственном воспитании, обогащении эмоционально-интеллектуального мира ребенка и пробуждении чувства национальной идентичности.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклор, сказка, пословица, песня, национальные ценности, дошкольное образование, нравственное воспитание, педагогическое средство.

KIRISH

Xalq og'zaki ijodi (folklor) – xalqning asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan, yozma shaklga kirmagan ijodiy merosi bo'lib, unda ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston, topishmoq, matal, alla, latifa va boshqa ko'plab janrlar jamlangan. Ushbu vositalar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda (5–7 yosh) milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Nazariy jihatdan xalq og'zaki ijodi bolaning psixologik rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi, emotsional-intellektual dunyosini boyitish va milliy o'zlik hissini uyg'otishda samarali vosita sifatida o'rganilgan.

Pedagogika fanida folklor bolaning tasavvurini, nutqini, hissiy-ruhiy dunyosini boyitish, yaxshilik va yomonlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, halollik, oilaga hurmat, kattalarga izzat, kichiklarga mehr kabi milliy qadriyatlarning asoslarini singdirishning tabiiy va samarali usuli sifatida baholanadi ^[9, 31].

Xalq og'zaki ijodi bolaga hayotiy tajribani o'yin shaklida, qiziqarli hamda esda qolarli tarzda yetkazadi. Natijada bolaning kognitiv, affektiv va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Masalan, ertaklar orqali bola yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini, qahramonlikni va adolatni o'rganadi. Maqollar qisqa, hikmatli iboralar sifatida nutq malakasini oshiradi va hayotiy anglamlarini kuchaytiradi. Alla hamda qo'shiqlar bolada mehr-muhabbat, tinchlik va ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. Afsona va dostonlar xalqning tarixiy xotirasini, vatanparvarlik va ahillik g'oyalarini singdiradi. Bu jarayon aksiologik, tizimli va rivojlantiruvchi yondashuvlarga asoslanadi. Xususan, bolani shaxs sifatida hurmat qilish, individual munosabat, tabiat va madaniyat bilan uyg'unlik, insonparvarlik tamoyillari ustuvorligini amalda ko'rsatadi. Ushbu nazariy asoslar pedagogika, psixologiya va falsafa integratsiyasiga tayanadi. Bolaning yosh xususiyatlariga (5–7 yoshdagi tasavvur kuchiga, emotsional qabul qilishiga, o'yin orqali o'rganishga) moslashtirilgan bo'lib, bolaning shaxsiyati shakllanishida rivojlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribada xalq og'zaki ijodidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliyoti boy merosga ega. Rossiya pedagogikasida K.D.Ushinskiy folklorning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur o'rgangan va "xalqchilik" tamoyilini ilgari surgan. Menimcha, Ushinskiyning quyidagi fikri xalq og'zaki ijodining bolalar tarbiyasidagi o'rnini go'zal tarzda ifodalaydi: "Ertaklar – xalqning birinchi va yorqin pedagogik tajribalari bo'lib, menimcha, hech kim xalqning pedagogik dahosiga raqobatchi bo'lolmaydi" [1: 289]. K.Ushinskiy folklorini nafaqat adabiy meros, balki bolalarning dunyoqarashi, nutqi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ko'radi. Yuqoridagi fikrlar ayni haqiqat, chunki u xalq og'zaki ijodi bolaning tabiiy rivojlanishiga mos kelishini ta'kidlab, biz ilgari surgan, milliy qadriyatlarining tarbiyadagi roli haqidagi g'oyamiz dolzarbligini ko'rsatadi.

Yevropa tajribasida nemis pedagogi Fridrix Frebel maktabgacha tarbiyada folklor elementlarini (qo'shiq, o'yin, ertak) bolaning tabiiy rivojlanishi uchun muhim deb baholagan. Uning "bolalar bog'chasi" tizimida ertak va qo'shiqlar bolaning o'z-o'zini rivojlantirishiga, hissiy va aqliy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilgan. Nemis millatiga mansub aka-uka Grimm ertaklari xalqaro miqyosda axloqiy tarbiya vositasi sifatida keng qo'llanilgan: ular yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini, do'stlik va adolatni targ'ib qiladi.

Daniyalik X.K.Andersen ertaklari ham shu tarzda bolalarga emotsional rivojlanish hamda axloqiy qadriyatlarini singdirishda muhim rol o'ynagan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlar folklorning samaradorligini yanada chuqurlashtirgan.

Masalan, E.I.Elizova rus xalq ertaklarining maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishdagi pedagogik potensialini o'rgangan. Tadqiqotda ertaklar orqali bolalarda milliy madaniyatga hurmat va o'zlik tuyg'usi shakllanishi ko'rsatilgan. Uning qarashlaricha, "...Rus xalq ertaklari bolalarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib, ular orqali bola o'z xalqining qadriyatlarini o'zlashtiradi" [2:5]. E.Elizova ertaklarni faqat o'qitish vositasi emas, balki bolaning milliy o'zligini shakllantiruvchi kuchli mexanizm sifatida ko'radi. Men bu yondashuvni juda muhim deb hisoblayman, chunki u bizning mavzumizdagi milliy qadriyatlar shakllanishi g'oyasini xalqaro tajriba bilan bog'laydi va maktabgacha yoshdagi bolalarning identifikatsiyasi jarayonini ilmiy asoslaydi.

L.VisikoKnox-Johnson esa ertaklarning bolalar rivojlanishidagi ijobiy ta'sirini tahlil qilib, ularning tashabbuskorlikni sinovdan o'tkazish va emotsional chidamlilikni oshirishdagi rolini alohida ta'kidlagan: "Ertaklar bolalarning tashabbuskorligini sinab ko'rish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular rivojlanishga yordam beradi" [3:12]. VisikoKnox-Johnson ertaklarni bolaning faoliyatini faollashtiruvchi vosita sifatida baholaydi. Men bu tahlilni qo'shilman, chunki u 5–7 yoshdagi bolalarning tasavvur va emotsional rivojlanish xususiyatlariga to'liq mos keladi va dissertatsiyamizdagi eksperimental metodikani asoslashga yordam beradi.

S.Sarwar ota-onalar va o'qituvchilarning folklorga nisbatan idrokini o'rganib, ertaklar merosini saqlash, ularni tarbiyada qo'llash zarurligiga urg'u bergan. "...Ota-onalar va o'qituvchilarga ertaklarni saqlash hamda hikoya qilish uchun qulay muhit yaratishni taklif qilinadi..." [4, 45]. S.Sarwar tadqiqoti folklorning oila va maktab hamkorligidagi ahamiyatini ochib beradi. Men bu fikrni qo'llab-quvvatlayman, chunki u amaliyotda xalq og'zaki ijodini keng qo'llash uchun zarur shart-sharoitlarni ko'rsatib, bizning milliy tajribamizni boyitadi.

A.S. Masri terapevtik ertaklarning bolalarning holistik rivojlanishidagi (emotsional, kognitiv, ijtimoiy, axloqiy va til) foydasini batafsil tahlil qilgan. Unga ko'ra, "...Terapevtik ertaklar bolalarning emotsional, kognitiv, ijtimoiy, axloqiy va til rivojlanishiga yordam beradi..." [5:6]. A.Masri folklorning ko'p qirrali ta'sirini ilmiy jihatdan isbotlagan. Bu yondashuv juda qimmatli, chunki u xalq og'zaki ijodining nafaqat axloqiy, balki bolaning butun shaxsiyatini rivojlantirishdagi rolini isbot etgan.

Folklorning maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi ta'sirini o'rganuvchi S.Sodikovna[8]ning ishida ertak, qo'shiq va maqollarning integratsiyasi til, axloqiy hamda madaniy rivojlanishni boyitishi ko'rsatilgan. Ishda integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi isbotlangan. Muallif qarashlari xalq og'zaki ijodining universal xususiyatini ko'rsatib, xalqaro tajribani milliy kontekstga moslashtirishga yordam beradi.



O'zbekistonda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning boy an'analari juda yaxshi o'rganilgan yo'nalishlardan hisoblanadi. Sovet davridan keyin mustaqillik yillarida bu yo'nalish yanada rivojlanib, milliy qadriyatlar (vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar, mehnatsevarlik, halollik, kattalarga hurmat, do'stlik) ni bolalar ongiga singdirishning asosiy vositasi sifatida chuqur o'rganildi.

D.A.Abdurahimovaning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishning konseptual asosi aksiologik, tizimli-faoliyatli hamda rivojlantiruvchi yondashuvlar integratsiyasida ko'rsatilgan. U yaxlit yondashuv, individual munosabat, tabiat va madaniyat bilan uyg'unlik, insonparvarlik yondashuvi tamoyillarini taklif etgan. "...Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish aksiologik va rivojlantiruvchi yondashuvlarga asoslanadi..."^[9, 31].

D.Abdurahimova milliy pedagogikada xalq og'zaki ijodining tizimli rolini juda yaxshi ochib bergan. U O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlar tarbiyasining zamonaviy konsepsiyasini yaratishga asosiy poydevorlardan hisoblanadigan tadqiqotni amalga oshirgan.

A.A.Abdullayev esa ertak, maqol, allalarning maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi rolini batafsil tahlil qilib, ularning nutqni rivojlantirish va fazilatlar (do'stlik, vatanparvarlik, halollik) ni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlagan. "...Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash nutq va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi..."^[10:45]. Tahlil shuni ko'rsatadiki, A.Abdullayev folklor hamda pedagogik tarbiya orasidagi amaliy bog'liqlikni ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lib, quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- 1. Nazariy tahlil usuli** – xalq og'zaki ijodi vositalarining nazariy asoslarini (aksiologik, tizimli-faoliyatli, rivojlantiruvchi yondashuvlar) chuqur o'rganish va ularning pedagogik ahamiyatini ochib berish.
- 2. Tematik sintez usuli** – nazariy asoslarni amaliy tajriba bilan birlashtirish va integratsiyalashgan yondashuvni shakllantirish.
- 3. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish usuli** – olingan natijalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash mexanizmlariga aylantirish. Ushbu metodlar orqali mavzuning nazariy va amaliy mohiyati izchil va chuqur ochib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq og'zaki ijodi bolaning psixologik rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi va milliy o'zlik hissini uyg'otishda samarali vosita sifatida o'rganilgan. Pedagogika fanida folklor bolaning tasavvurini, nutqini va hissiy-ruhiy dunyosini boyitishning tabiiy usuli sifatida baholanadi. Bu jarayon aksiologik, tizimli-faoliyatli va rivojlantiruvchi yondashuvlarga asoslanadi. Bolani shaxs sifatida hurmat qilish, individual munosabat va insonparvarlik tamoyillarini ustuvorlik qiladi.

Xalqaro tajribada xalq og'zaki ijodidan foydalanishning nazariy asoslari boy merosga ega. Rossiya pedagogikasida K.D.Ushinskiy folklorning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur o'rgangan va "xalqchilik" tamoyilini ilgari surgan. Uning fikricha, "Ertaklar – xalqning birinchi va yorqin pedagogik tajribalari bo'lib, hech kim xalqning pedagogik dahosiga raqobatchi bo'lolmaydi"^[1, 289]. Ushinskiy folklori bolalarning dunyoqarashi, nutqi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy vositasi deb hisoblaydi.

Yevropa tajribasida Fridrix Frebel maktabgacha tarbiyada folklor elementlarini (qo'shiq, o'yin, ertak) bolaning tabiiy rivojlanishi uchun muhim deb baholagan. Aka-uka Grimm va X.K. Andersen ertaklari axloqiy tarbiya vositasi sifatida keng qo'llanilgan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda E.I. Elizova rus xalq ertaklarining madaniy identifikatsiyani shakllantirishdagi pedagogik potensialini o'rgangan: "...Rus xalq ertaklari bolalarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib, ular orqali bola o'z xalqining qadriyatlarini o'zlashtiradi"^[2, 5].

L.VisikoKnox-Johnson ertaklarning tashabbuskorlik va emotsional chidamlilikni oshirishdagi rolini ta'kidlagan^[3, 12].

S.S.Sarwar, A.S.Masri, H.N.T.Cleto va S.Asgarov folklorning axloqiy, emotsional va kognitiv rivojlanishdagi ta'sirini batafsil tahlil qilgan^[4-7].

O'zbekistonda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning boy an'analari mavjud. D.A.Abdurahimova xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishning konseptual asosini ishlab chiqqan: "...Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish aksiologik va rivojlantiruvchi yondashuvlarga asoslanadi"^[9, 31].

A.A.Abdullayev ertak, maqol va allalarning nutq va axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi rolini ta'kidlagan ^[10, 45].

N.N. A'zamova katta yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar shakllantirish yo'llarini o'rgangan ^[11, 1251].

J.S. Saidov, Sh.S. Sharipova, N. Yusupova va D.M. Xayriddinova milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rnini chuqur yoritgan ^[12-15].

"Maktabgacha pedagogika" darsligida folklor bolalarni axloqiy, estetik va milliy tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida qaraladi ^[16, 685].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida tahlil etilgan barcha tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodi – tarbiya berishdagi eng asosiy omillardan ekanligi qayd etilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarning didaktik, estetik, pedagogik, psixologik, ijtimoiy xususiyatlari chuqur tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida folklor milliy qadriyatlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida belgilangan.

Amaliyotda maktabgacha ta'lim muassasalarida ertak o'qish, maqol tahlili, qo'shiq va o'yinlar orqali bolalarda milliy g'urur, axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik ruhi shakllantirilmoqda. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali vosita. U bolalarning milliy o'zligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. – Москва: Педагогика, 1974. – С. 289.
2. Elizova E.I. Pedagogical Potential of Russian Folk Tales in Formation of Cultural Identity of Preschool Children // Atlantis Press, 2019. – P. 5.
3. VisikoKnox-Johnson L. The Positive Impacts of Fairy Tales for Children // University of Hawaii, 2010. – P. 12.
4. Sarwar S.S. A Perception Study of Parents & Teachers on Folktales // BRAC University, 2023. – P. 45.
5. Masri A.S. Therapeutic Fairytales for Holistic Child Development // PMC, 2025. – P. 8.
6. Cleto H.N.T. Using Folktales in Moral Education for Preschool Children // IJESSR, 2019. – P. 15.
7. Asgarov S. The Use of Oral Folklore in the Process of Moral Education of Preschool Children // Science-SD, 2013. – P. 241.
8. Sodikovna S.G. The Role of Folklore in the Development of Moral Education among Preschool Children // WOS Journals, 2025. – P. 794.
9. Abdurahimova D.A. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 31.
10. Abdullayev A.A. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash // Foreign Language Learning. – 2021. – B. 45.
11. A'zamova N.N. Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarda milliy qadriyatlar shakllantirish yo'llari (katta guruh misolida) // Inter-science.uz, 2022. – B. 1251.
12. Saidov J.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati // CyberLeninka, 2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1046-1050.
13. Sharipova Sh.S. Xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlar // Worldly Journals, 2024. – P. 7-8.
14. Yusupova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish // Neliti, 2023. – 676112.
15. Xayriddinova D.M. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari // CyberLeninka, 2026.
16. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – B. 685.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.